

Navoiy viloyatida turizm va dam olishni rivojlanishi

2024-yil uchun

- I. Turistik firma va tashkilotlarning faoliyati
- II. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining faoliyati
- III. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining faoliyati
- IV. Individual va boshqa joylashtirish vositalarining faoliyati
- V. Turizm va dam olishni rivojlanishining ko'rsatkichlariga doir uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Turistik firma va tashkilotlarning faoliyati

2024- yilda Navoiy viloyatida **28 ta** turistik firma va tashkilotlar faoliyat yuritib, ular **17,0 ming kishiga¹⁾** xizmat ko'rsatganlar va jami **81 ta** sayyohlik yo'llanmalarini sotganlar. 2023- yilga nisbatan esa asosiy ko'rsatkichlarning o'sishi kuzatilgan: turistik firma va tashkilotlar soni – **5 taga**, ya'ni **21,7 % ga**, ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni – **0,5 mingtaga**, ya'ni **3,0 % ga** oshgan, sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni esa **13 taga**, ya'ni **13,8 % ga** kamaygan.

Turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yil uchun)



¹⁾ Faqat viza, chet el pasportini rasmiylashtirish, mehmonxonada joy band qilish va shunga o'xshash xizmatlar ko'rsatilgan fuqarolarni qo'shgan holda.

Turistik firma va tashkilotlar faoliyati ko'rsatkichlarini
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun)

	Turistik firma va tashkilotlar soni		Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni		Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni	
	Jami (birlik)	jamiga nisbatan % dagi ulushi	Jami (ming kishi)	jamiga nisbatan % dagi ulushi	Jami (birlik)	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Navoiy viloyati	28	100,0	17,0	100,0	81	100,0
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	14	50,0	8,8	51,7	77	95,1
Zarafshon	2	7,1	1,5	8,8	4	4,9
G'ozg'on	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	8	28,6	0,9	5,3	-	-
Konimex	-	-	-	-	-	-
Qiziltepa	-	-	-	-	-	-
Navbahor	2	7,1	0,3	1,8	-	-
Nurota	1	3,6	5,3	31,2	-	-
Tomdi	-	-	-	-	-	-
Uchquduq	-	-	-	-	-	-
Xatirchi	1	3,6	0,2	1,2	-	-

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan turistik firma va tashkilotlar soni](#)

[Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslari soni](#)


[Turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalar soni](#)

II. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining faoliyati

2024-yilda Navoiy viloyatida **36 ta** mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda **1 119 ta** nomer (xona)lar, **1 978 ta** joylar mavjud bo'lgan va **48,3 ming kishi** joylashtirilgan. 2023- yilga nisbatan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni **4 taga**, ya'ni **12,5 % ga**, nomer fondi **178 taga (18,9 % ga)**, joylarlar soni **332 taga (20,2 % ga)** oshgan, joylashtirilgan shaxslar soni esa **0,3 ming kishiga**, ya'ni **0,6 % ga** kamaygan.

**Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari
faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**
(tegishli yil uchun)

**Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish
vositalarining obyektlari soni**
(birlik)




Joylashtirilgan shaxslar soni
(ming kishi)



Nomerlar (xonalar) soni
(birlik)



Joylar soni
(birlik)




**Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari
faoliyati ko'rsatkichlarini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**
(2024-yil uchun)

	Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni (birlik)	Joylashtirilgan shaxslar soni (ming kishi)	Nomerlar (xonalar) soni (birlik)	Joylar soni (birlik)
Navoiy viloyati	36	48,3	1 119	1 978
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	17	27,8	726	1 154
Zarafshon	6	8,2	97	222
G'ozg'on	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	6	7,5	199	404
Konimex	-	-	-	-
Qiziltepa	2	2,0	21	42
Navbahor	1	0,2	8	30
Nurota	1	0,8	11	30
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	3	1,8	57	96
Xatirchi	-	-	-	-

III. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining faoliyati

2024- yilda Navoiy viloyatida **16 ta** ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda **555 ta** nomer (xona)lar va **1 231 ta** joylar mavjud bo'lgan. Hisobot davrida ushbu joylashtirish vositalariga **16,4 ming kishi** joylashtirilgan. 2023- yilga nisbatan ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari soni o'zgarmagan, nomer fondi esa **33 taga (5,6 % ga)**, joylar soni **32 taga (2,5 % ga)**, joylashtirilgan shaxslar soni **3,4 ming kishiga**, ya'ni **17,2 % ga** kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yil uchun)




Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati ko'rsatkichlarini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil uchun)

	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari soni (birlik)	Joylashtirilgan shaxslar soni (ming kishi)	Nomerlar (xonalar) soni (birlik)	Joylar soni (birlik)
Navoiy viloyati	16	16,4	555	1 231
<i>viloyatlar:</i>				
Navoiy	5	8,6	331	632
Zarafshon	1	1,1	14	30
G'ozg'on	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	1	0,5	27	57
Konimex	1	0,5	9	54
Qiziltepa	3	0,4	34	104
Navbahor	1	0,8	28	75
Nurota	2	2,2	34	95
Tomdi	-	-	-	-
Uchquduq	1	2,1	42	90
Xatirchi	1	0,2	36	94

IV. Individual va boshqa joylashtirish vositalarining faoliyati

2024- yilda Navoiy viloyatida **40 ta** individual va boshqa joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda **288 ta** nomer (xona)lar va **891 ta** joylar mavjud bo'lgan. Hisobot davrida ushbu vositalarga **24,5 ming kishi** joylashtirilgan. 2023- yilga nisbatan individual va boshqa joylashtirish vositalarining obyektlari soni **5 taga**, ya'ni **14,3 % ga** oshgan, nomer fondi o'zgarmagan, joylar soni **15 taga (1,7 % ga)**, joylashtirilgan shaxslar soni esa **2,0 ming kishiga**, ya'ni **8,9 % ga** ko'paygan.

Individual va boshqa joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tegishli yil uchun)



Individual va boshqa joylashtirish vositalari faoliyati ko'rsatkichlarini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil uchun)

	Individual va boshqa joylashtirish vositalarining obyektlari soni (birlik)	Joylashtirilgan shaxslar soni (ming kishi)	Nomerlar (xonalar) soni (birlik)	Joylar soni (birlik)
Navoiy viloyati	40	24,5	288	891
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	4	3,3	25	55
Zarafshon	9	4,6	43	112
G'ozg'on	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	8	4,7	78	229
Konimex	3	8,0	70	280
Qiziltepa	-	-	-	-
Navbahor	-	-	-	-
Nurota	6	1,9	22	74
Tomdi	3	0,3	9	26
Uchquduq	5	1,3	33	81
Xatirchi	2	0,4	8	34

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Jamoaviy joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

[Jamoaviy joylashtirish vositalaridagi joylar soni](#)

[Jamoaviy joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar soni](#)

V. Turizm va dam olishni rivojlanishining ko'rsatkichlariga doir uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar (TSXT – 2008)ga muvofiq, "turizm" tushunchasi tashrif buyuruvchilar faoliyatiga mansubdir.

Tashrif buyuruvchi sayohatchi tushunchasining quyi toifasi, turizm esa sayohat tushunchasining quyi toifasi hisoblanadi. Turistik safarni amalga oshirayotgan sayohatchi tashrif buyuruvchi deb ataladi.

Kiruvchi turistik safar – tashrif buyuruvchining mamlakatga kirib kelgan paytidan boshlab, mamlakatdan chiqib ketgunga qadar amalga oshirgan sayohati.

Chiquvchi turistik safar – tashrif buyuruvchining o'z doimiy yashash mamlakatidan chiqib ketish paytidan boshlab, unga qaytib kelgunga qadar amalga oshirgan sayohati.

Jamoaviy joylashtirish vositasi (YUNVTO terminologiyasiga muvofiq) sayyohlarga doimiy yoki vaqt-vaqti bilan tunab qolish uchun xona yoki boshqa binolarda joylashish imkoniyatini taqdim etadigan har qanday obyektni anglatadi, ammo undagi nomer (xona)lar soni har bir davlat tomonidan mustaqil ravishda belgilangan minimal darajadan ortiq bo'lishi kerak. Shu bilan birga, jamoaviy joylashtirish vositasidagi barcha nomer (xona)lar yagona boshqaruvga bo'ysunishi (xatto foyda olish maqsad qilinmagan bo'lsa ham), ko'rsatiladigan xizmatlar va mavjud jihozlarga muvofiq toifa va sinflarga ajratilgan bo'lishi kerak.

Jamoaviy joylashtirish vositalariga **mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari** (mehmonxonalar, motellar, xostellar va mehmonxona turidagi boshqa tashkilotlar), **ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari** (sanatoriya-kurort tashkilotlari, sog'lomlashtirish tashkilotlari, dam olish uylari, pansionatlar, kempinglar, dam olish bazalari, turistik bazalar va boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari), **individual va boshqa joylashtirish vositalari** (mehmon uylari, dala hovlilari, o'tov lagerlari va individual joylashtirish vositalarining boshqa turlari).

Nomer fondi – joylashtirish vositasidagi umumiy nomer (xona)lar soni (ya'ni yashash uchun mo'ljallangan turar joy xonalari). Vaqtincha yashash uchun zarur bo'lgan mebel, jihoz va inventarlar bilan jihozlangan bir yoki bir nechta turar joy xonalari nomer (xona) deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlantirishga oid statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

➤ Turistik oqimlar haqidagi ma'muriy ma'lumotlar (**chet elga ketgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat personallashtirish agentligi tomonidan, **O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlar** esa O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo'shinlari tomonidan taqdim etiladi). Ushbu ma'lumotlar safar maqsadlari hamda tashrif buyuruvchilarning doimiy yashash mamlakatlari bo'yicha taqsimotni o'z ichiga oladi va har oyda Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etiladi;

➤ Yillik statistika hisobotlari 1 turizm shakli “Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish va joylashtirish to‘g‘risidagi hisobot” va 1 kb (tur) (1 kb shakliga ilova) “Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish va joylashtirish to‘g‘risidagi mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti”. Ushbu hisobotlarni sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar, zarur holatlarda ularning alohida bo‘linmalari taqdim etadilar. Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish va joylashtirish to‘g‘risidagi statistika hisobotlarida turistik firma va tashkilotlar (xodimlar, sotilgan sayyohlik yo‘llanmalar va xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni haqida ma’lumotlar) hamda jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati (nomer fondi, joylashtirilgan shaxslar va tunab qolish holatlari soni), shuningdek turizm va dam olish sohasini tavsiflovchi boshqa ko‘rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma’lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

Turizm sohasidagi statistik ma’lumotlar turistik sohaning holatini baholashda, davlat siyosatini shakllantirishda va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, turistik oqimlarni monitoring qilish hamda tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma’lumotlar davlat organlari, biznes hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarga mamlakatda turizmni rivojlantirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Foydali havolalar:

[O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi Qonuni \(O‘RQ-549-son\)](#)

[TSXT – 2008](#)

[Turizm statistikasi bo‘yicha uslubiy Nizom](#)

[O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasining tashqi sektori statistikasi shakllantirilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori \(263-son\)](#)

[O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni \(PF-87-son\)](#)

Tayyorlash uchun mas’ul:
*Aholi turmush darajasi
va ijtimoiy soha
statistikasi bo‘limi*

Manzil: Navoiy sh.,
Amir Temur ko‘chasi, 4
El. manzil: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-54-98

